

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLARNI MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

“KELISHILGAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi xuzuridagi
Intellektual mulk
agentligi direktori**




T. Abdusattorov

2022-yil ___-mart

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori**



Sh. Rabiyeu

2022-yil 10-mart

**YURIDIK TAYYORGARLIK
FANI BO‘YICHA
O‘QUV DASTURI**

Mutaxassislik: Patent vakillari

Dastur turi: Patent vakillarini qayta tayyorlash bo‘yicha qo‘shimcha dastur

Toshkent - 2022

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni tasdiqlangan “Patent vakili” mutaxassisligi bo‘yicha O‘quv reja bilan fan nomi va hajmi belgilangan.

Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy eti chora-tadbirlari to‘g‘risi”gi 544-son qarori asosida ishlab chiqilgan.

Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

R.Shakurov – Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

X.Quchqarov – Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

M.Voxidov – Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra dotsenti, yuridik fanlar nomzodi.

Taqrizchilar:

1. Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra mudiri dotsent S.Maripova;
2. Toshkent davlat yuridik universiteti kafedra professori, yu.f.d., professor O.Okyulov.

Fan dasturi Yuristlar malakasini oshirish markazi O‘quv va ilmiy-uslubiy Kengashining 2022-yil ___-_____dagi yig‘ilishining ___-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.

I. O‘QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA‘LIMDAGI O‘RNI

Ushbu fan huquqning kelib chiqishi, ijtimoiy munosabatlar va huquq, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq normalari, huquq shakllari (manbalari), huquq ijodkorligi, huquq tizimi, huquqiy munosabatlar, huquqni amalga oshirish, huquq normalarini sharhlash, yuridik amaliyot, huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, huquqiy tartibga solish mexanizmi, qonuniylik va huquqiy tartibot, hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizimi va oilalari, davlat va huquqning rivojlanish istiqboli va yo‘llari kabi masalalarni qamrab olgan. Shuningdek, mazkur fanning predmetini o‘rganish jarayonida ma‘muriy huquq asoslarini, mehnat huquqi asoslarini, oila huquqi asoslarini, jinoyat huquqi asoslari kabi huquq sohalarini o‘rganish asosiy maqsad qilingan.

“Yuridik tayyorgarlik” fani O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni tasdiqlangan “Patent vakili” mutaxassisligi bo‘yicha O‘quv rejaning umumtayyorgarlik fanlari blokiga kiritilgan fan bo‘lib, patent vakili sifatida faoliyatni amalga oshirish istagini bildirgan jismoniy shaxs – patent vakilligiga nomzodlarga (keyingi o‘rinlarda – nomzod deb yuritiladi) o‘qitiladi.

II. O‘QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Yuridik tayyorgarlik” fanini o‘qitishdan **maqsad** – nomzodlarga huquq tushunchasi va tizimi, ijtimoiy munosabatlar va huquq, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq normalari, huquq shakllari (manbalari), huquq ijodkorligi, huquq tizimi, huquqiy munosabatlar, huquqni amalga oshirish, huquq normalarini sharhlash, yuridik amaliyot, huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, huquqiy tartibga solish mexanizmi, qonuniylik va huquqiy tartibot, hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizim va oilalari, huquqning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan nomzodlarning nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, umumiyuridik fanlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha nomzodlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘ydagi talablar qo‘yiladi.

Nomzod:

– huquqning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, amal qilishi va istiqboli, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlovchi huquqiy tizim hamda asosiy qonun haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar, huquqiy tizim va qonunchilik asoslarini, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati idoralarining tuzilishi va faoliyati haqida nazariy va amaliy ***bilimlarga ega bo‘lishi;***

– ixtisosligi bilan bog‘liq mehnat faoliyati davomida sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlardan to‘g‘ri foydalanish va o‘ziga tegishli huquq hamda erkinliklari, majburiyatlarini qonunchilik doirasida qo‘llash ***ko‘nikmasiga ega bo‘lishi*** lozim.

**“Yuridik tayyorgarlik” fanidan
MAVZULAR REJASI**

№	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Jami o‘quv soatlari	Shu jumladan,		
			Ma`ruza	Seminar	Amaliy mashg‘ulot
<i>1-Modul. Huquq nazariyasi asoslari</i>					
1	“Huquq” tushunchasi, manbalari va tizimi. Huquqiy munosabatlar	2	2	-	-
2	Qonuniylik, huquqiy tartibot va intizom. Huquqiy xatti-harakat, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik	2	2	-	-
<i>2-Modul. Konstitusiyaviy huquq</i>					
3	O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy tuzumi va uning asosiy prinsiplari. O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati organlarining tizimi	2	2	-	-
4	Shaxsning konstitusiyaviy-huquqiy maqomi. Fuqarolik. Insonning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi	2	-	2	-
<i>3-Modul. Ma`muriy huquq</i>					
5	Davlat boshqaruvining shakl va usullari. Ma`muriy majburlash.	2	2	-	-
6	Ma`muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va jazo berish vakolati bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar. Ma`muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish	2	2	-	-
7	Ma`muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishning tartibi va muddatlari	2	-	2	-
8	Ma`muriy javobgarlik va ma`muriy jazo choralari. Ayrim turdagi ma`muriy huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik	2	2	-	-
<i>4-Modul. Fuqarolik huquqi</i>					
9	“Fuqarolik huquqi” tushunchasi. Ishonchnoma. Da`vo muddati.	2	2	-	-
10	Mulk huquqi va uni himoya qilish. Fuqarolik-huquqiy bitimlar va shartnomalar	2	2	-	-
11	Fuqarolik-huquqiy majburiyatlar hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik	2	-	2	-
<i>5-Modul Jinoyat huquqi</i>					
12	“Jinoyat” tushunchasi va belgilari. Jinoyat uchun javobgarlikning asoslari. “Jinoyat tarkibi” tushunchasi	2	2	-	-
13	Tamom bo‘lmagan jinoyat va jinoyatda ishtirokchilik. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar	2	-	2	-
14	Jazo va uni tayinlash. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. Sudlanganlik. Alohida turdagi jinoyatlarning xususiyatlari	2	2	-	-
	Oraliq nazorat	2	-	-	2
<i>6-Modul. Jinoyat protsessi</i>					
15	Jinoyat protsessining ishtirokchilari	2	2	-	-
16	Dalillar va isbotlash jarayoni	2	-	2	-
17	Protsessual majburlov	2	2	-	-
18	Ishni sudga qadar yuritish	2	-	-	2
19	Sud tergovi	2	-	2	-
<i>7-Modul. Moliya huquqi va tadbirkorlik huquqi</i>					
20	Moliya huquqi tizimi va asoslari	2	2	-	-
21	Byudjet huquqi	2	-	2	-

22	Tadbirkorlik huquqi tushunchasi	2	2	-	-
8-Modul. Mehnat huquqi asoslari					
23	Mehnat huquqi tushunchasi va predmeti	2	2	-	-
24	Intizomiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish	2	-	2	-
25	Mehnatga oid qonun hujjatlarining vazifalari	2	2	-	-
26	Mehnatga oid munosabatlarning sub`yektlari	2	-	2	
9-Modul. Inson huquqlari va xalqaro huquq					
27	Inson huquqlari: tushunchasi, turlari va prinsiplari	2	2	-	-
28	Inson huquqlarini ta`minlashda individual huquqlarning o`rni	2	-	2	-
29	Xalqaro huquq tizimi	2	2	-	-
30	Xalqaro huquqni ta`minlash mexanizmlari	2	-	2	-
	Yakuniy nazorat	2	-	-	2
	JAMI	64	36	22	6

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLARI)

1-Modul. HUQUQ NAZARIYASI ASOSLARI

1-Mavzu. “Huquq” tushunchasi, manbalari va tizimi.

Huquqiy munosabatlar

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning ahamiyati. Huquq, uning asosiy belgilari va o`ziga xos xususiyatlari. Huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat. Huquq ijodkorligi. Huquq normalari va huquq shakllari (manbalari). Huquqiy munosabatlar. Huquq tizimi. Huquqni amalga oshirish.

2-Mavzu. Qonuniylik, huquqiy tartibot va intizom.

Huquqiy xatti-harakat, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik

«Qonuniylik» tushunchasi, vazifasi, prinsiplari va kafolatlari. Huquqiy tartibot va intizom.

Huquqiy xatti-harakat va uning turlari. Huquqbuzarlikning belgilari, turlari va tarkibi. Yuridik javobgarlikning turlari va prinsiplari.

2-Modul. KONSTITUSIYAVIY HUQUQ

3-Mavzu. O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy tuzumi va uning asosiy prinsiplari. O`zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati organlarining tizimi

Konstitusiyaviy tuzum va uning elementlari. Davlat suvereniteti. O`zbekiston Respublikasining suveren davlat sifatidagi davlat-huquqiy belgilari. O`zbekiston Respublikasining davlat ramzlari. Xalq hokimiyatchiligining mazmuni. O`zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo`linishi konstitusiyaviy prinsipi. O`zbekiston Respublikasida Konstitusiya va qonunlarning ustunligi. O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitusiyaviy asoslari va asosiy prinsiplari. Davlat hokimiyati organlari tizimi va turlari. Davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va vazifalari. Konstitusiyaning davr talablari asosida takomillashuvi.

4-Mavzu. Shaxsning konstitusiyaviy-huquqiy maqomi. Fuqarolik.

Insonning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi

Shaxsning huquqiy maqomi, uning elementlari va prinsiplari. O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi. «Inson huquqlari» tushunchasi. Konstitusiyaviy huquq va burchlar tizimi.

3-Modul. MA`MURIY HUQUQ

5-Mavzu. Davlat boshqaruvining shakl va usullari.

Ma`muriy majburlash.

Davlat boshqaruvi va uning asosiy prinsiplari. Ma`muriy huquqning mohiyati. Davlat boshqaruvining shakllari. Davlat boshqaruvining usullari. Ma`muriy majburlash.

6-Mavzu. Ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqish va jazo berish vakolati bo`lgan organlar va mansabdor shaxslar.

Ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni yuritish

Ma`muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar). Ma`muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarning taalluqliligi. Ma`muriy protsess va uning prinsiplari. Ma`muriy huquqbuzarlik bo`yicha ish yuritishning vazifalari va asosiy qoidalari hamda bu turdagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar. Ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqishning tartibi. Ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ish yuzasidan chiqariladigan qaror va uning turlari.

7-Mavzu. Ma`muriy jazo qo`llash to`g`risidagi qarorlarni ijro etishning tartibi va muddatlari

Ma`muriy jazo qo`llash to`g`risidagi qarorlarni ijro etishning tartibi. Ma`muriy jazo qo`llash to`g`risidagi qarorlarni ijro etish muddatlari.

Davlat boshqaruvida kontrol va uning turlari. Davlat boshqaruvida nazorat. Prokuror nazorati. Ma`muriy nazorat. Murojaat, uning turlari va ko`rib chiqish tartibi hamda muddatlari.

8-Mavzu. Ma`muriy javobgarlik va ma`muriy jazo choralari.

Ayrim turdagi ma`muriy huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik

«Ma`muriy huquqbuzarlik» tushunchasi va tarkibi. Ma`muriy javobgarlik. Ma`muriy jazo choralari.

Ayrim turdagi ma`muriy huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik. Tadbirkorlik faoliyatiga to`sqinlik qilganlik, qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda xo`jalik yurituvchi sub`yektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik.

4-Modul. FUQAROLIK HUQUQI

9-Mavzu. “Fuqarolik huquqi” tushunchasi.

Ishonchnoma. Da`vo muddati.

«Fuqarolik huquqi»ning tushunchasi, predmeti, tamoyillari, tizimi va manbalari. Ishonchnoma, uning ahamiyati, turlari, shakllari, muddatlari va bekor bo`lish asoslari. Fuqarolik huquqida «muddatlar» tushunchasi va ularni hisoblash. Da`vo muddatlari va ularning turlari. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, ularning mazmuni. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari va tizimi.

10-Mavzu. Mulk huquqi va uni himoya qilish.

Fuqarolik-huquqiy bitimlar va shartnomalar

Bitimlarning turlari, ularning haqiqiy hisoblanish shartlari va haqiqiy sanalmasligi. Shartnoma, uning turlari, shakllari va ularni o`zgartirish va bekor qilishning asoslari. Haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi va uning alohida turi sifatida axborot xizmati ko`rsatishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi.

11-Mavzu. Fuqarolik-huquqiy majburiyatlar hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik

«Majburiyat huquqi» tushunchasi, tizimi va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati. Majburiyatlarning vujudga kelishi, bajarilishi va bekor bo'lishi asoslari. «Majburiyatlarni bekor qilish va o'zgartirish» tushunchasi va turlari.

5-Modul. JINOYAT HUQUQI

12-Mavzu. “Jinoyat” tushunchasi va belgilari. Jinoyat uchun javobgarlikning asoslari. “Jinoyat tarkibi” tushunchasi

Jinoyatning ijtimoiy-huquqiy mohiyati. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqi. Jinoyatlarni tasniflash. Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari. Jinoyat uchun javobgarlikning vujudga kelishi, amalga oshirilishi va tugatilishi. Jinoyat tarkibi va tuzilishi. Jinoyat tarkibining ob'yekti va turlari. Jinoyat tarkibining ob'yektiv tomoni va belgilari. Jinoyat sub'yektiv tomonining belgilari. Jinoyat tarkibining sub'yektiv tomoni va belgilari.

13-Mavzu. Tamom bo'lmagan jinoyat va jinoyatda ishtirokchilik. Qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar

Qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari va turlari. Jinoyatda ishtirokchilik va uning belgilari. Qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar va ularning turlari. Zaruriy mudofaaning belgilari. Oxirgi zarurat, uning belgilari.

14-Mavzu. Jazo va uni tayinlash. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. Sudlanganlik. Alohida turdagi jinoyatlarning xususiyatlari

«Jazo» tushunchasi, tizimi, mohiyati, maqsadi va uni tayinlashning umumiy asoslari. Javobgarlikdan ozod qilishning turlari. Jazodan ozod qilish va uning turlari. Sudlanganlik, sudlanganlik holatining tugatilishi va olib tashlanishi.

Alohida turdagi jinoyatlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

ORALIQ NAZORAT

O'quv dasturining 1-14 – mavzulari bo'yicha test shaklidagi oraliq nazoratlarni o'tkazish va baholash, bu turdagi oraliq nazoratni o'tkazish bo'yicha metodik materiallar asosida amalga oshiriladi.

6-Modul. JINOYAT PROTSESSI

15-Mavzu. Jinoyat protsessining ishtirokchilari

«Jinoyat protsessi» tushunchasi. Jinoyat protsessining ishtirokchilari va ularning tasnifi. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar. Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari. Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar. Himoyachi va vakillar. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar. Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar. Rad qilishlar.

16-Mavzu. Dalillar va isbotlash jarayoni

Isbotlash predmeti va doirasi. Dalil, uning turlari va tasnifi. Isbotlash jarayoni: dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish va baholash.

17-Mavzu. Protsessual majburlov

Protsessual majburlov choralari va ularning ahamiyati. Protsessual majburlov choralarining turlari va mohiyati. Ehtiyot choralarining umumiy tavsifi.

18-Mavzu. Ishni sudga qadar yuritish

Surishtiruv, surishtiruv organlari. Surishtiruvning boshlanishi va muddatlari. Tergovchining surishtiruv organlari bilan hamkorligi.

19-Mavzu. Sud tergov

Sud tergov jinoiyat ishlari bo'yicha sud muhokamasining asosiy va mas'uliyatli qismi. Sud tergov jarayoni. Dalillarni tekshirish tartibini belgilash. Sud tergovida sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish. Dalillarni ko'zdan kechirish, guvohlantirish, yozma dalillarni o'qib eshittirish, ekspertiza o'tkazish va boshqa sud harakatlarini bajarish navbati to'g'risidagi masalani hal qilish va amalga oshirish. Sud tergovini to'ldirish masalasi. Sud tergovini tamomlash.

7-Modul. MOLIYA HUQUQI VA TADBIRKORLIK HUQUQI

20-Mavzu. Moliya huquqi tizimi va asoslari

Moliya atamasi tushunchasi. Moliyaviy munosabatlar. Moliya huquqi predmeti. Moliya huquqi manbalari. Moliya huquqiy munosabatlarining xususiyatlari. Moliya huquqining hokimiyat xususiyati. Moliyaviy nazorat tushunchasi va vazifalari. Nazorat ob'yektlari. Moliya intizomi. Moliyaviy nazorat tizimi. Umumiy nazoratli va maxsus nazoratli organlar. Auditorlik faoliyati. Tashabbusli va majburiy audit tekshiruvi. Bank tushunchasi. Banklarning asosiy vazifalari. Bankning: a) korxonasi; b) savdo korxonasi; v) vosita korxonasi; g) birja agenti; d) kredit muassasasi sifatidagi vazifalari. Bank va banklar tizimi.

21-Mavzu. Byudjet huquqi

Davlat byudjeti tizimi. Daromadlar va xarajatlar. Davlat maqsadli jamg'armalari. Byudjet manbalari. Soliq huquqi tushunchasi. Soliqlarning xususiyatlari. Soliqlar va bank majburiy to'lovi turlari. Soliq prinsiplari - majburiylik, beg'arazlilik, joriy etish va undirib olishning tartibini belgilash.

22-Mavzu. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi

Tadbirkorlik huquqi predmeti. Tadbirkorlik huquqining asosiy tushunchalari: iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish; iqtisodiy uslublarni qo'llash; xususiy tadbirkorlikning ustuvorligi; narxlarni erkinlashtirish, o'zaro raqobat va h.k. Tadbirkorlik huquqi manbalari. Tadbirkorlik huquqi sub'yektlari va turlari. Fuqarolar (xususiy), jamoa mulkiga asoslangan tadbirkorlik, davlat mulkiga asoslangan tadbirkorlik, aralash mulkka asoslangan tadbirkorlik. Tadbirkor faoliyati sub'yektlari turlari. Aksiyadorlik jamiyatlari, shirkat xo'jaliklari, xo'jalik shirkatlari hamda jamiyatlari va boshqalar.

8-Modul. MEHNAT HUQUQI ASOSLARI

23-Mavzu. Mehnat huquqi tushunchasi va predmeti

Mehnat huquqiga oid munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Mehnatdan tashqari mehnat munosabatlari turlari va mohiyati. Mehnat huquqi manbalari. Lokal huquqiy xujjatlar tushunchasi va turlari. Mehnat huquqi kafolatlari.

Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomalarining fuqarolik shartnomalaridan farqi. Mehnat shartnomasi taraflari. Mehnat shartnomasining mazmuni, shartlari va muddatlari. Ishga qabul qilishni rad etish. Mehnat daftarchasi. Sinov tushunchasi. Mehnat shartnomasi turlari.

Ish vaqti tushunchasi. Umumiy ish vaqti. Kalendar ish vaqti. Haqiqatda ishlagan vaqti. Normal, qisqartirilgan va to'liqsiz ish kunlari. Ish vaqti rejimi. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari. Ta'tillar. Imtiyozli ta'tillar.

24-Mavzu. Intizomiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish

Intizomiy javobgarlik tushunchasi. Umumiy va maxsus intizomiy javobgarlik. Intizomiy javobgarlik belgilari. Asossiz javobgarlikka tortishga qarshi kurashish kafolatlari. Intizomiy jazo turlari. Moddiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi. Mehnatni muhofaza qilish vazifalari. Muhofaza qilish ustidan nazorat. Mehnat nizolari. Da'voli va da'vosiz nizolar. Yakka tartibda va jamoa mehnat nizolari. Mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko'rib chiqish tartibi.

25-Mavzu. Mehnatga oid qonun hujjatlarining vazifalari

Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari. Mehnat kodeksining amal qilish doirasi. Mehnatga oid munosabatlarni qonunlar orqali va shartnomalar asosida tartibga solishning o'zaro bog'liqligi. Mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishi. Majburiy mehnatning taqiqlanishi. Mehnat sohasidagi davlat boshqaruvi. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish.

26-Mavzu. Mehnatga oid munosabatlarning sub'yektlari

Xodim mehnatga oid munosabatlarning sub'yekti sifatida. Ish beruvchi mehnatga oid munosabatlarning sub'yekti sifatida. Xodimning asosiy mehnat huquqlari. Ish beruvchining asosiy huquqlari. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning xususiyatlari. Mehnat jamoasi mehnatga oid munosabatlarning sub'yekti sifatida.

9-Modul. INSON HUQUQLARI VA XALQARO HUQUQ

27-Mavzu. Inson huquqlari: tushunchasi, turlari va prinsiplari

Inson xuquqlari, asosiy xuquq va erkinliklar. Inson xuquqlarining mohiyati va prinsiplari. Inson xuquqlarining avlodlari.

28-Mavzu. Inson huquqlarini ta'minlashda individual huquqlarning o'rni

Inson huquqlarini taminlashda individual huquqlar. Intellektual mulk huquqi inson xuquqlarining ajralmas qismi sifatida. Intellektual mulkning huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning o'ziga xos jihatlari. Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sud amaliyoti, mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish

29-Mavzu. Xalqaro huquq tizimi

Xalqaro huquq tushunchasi, mohiyati. Xalqaro huquq normalarining yuridik majburiyligi. Xalqaro huquqning manbalari. Xalqaro shartnomalar hamda ularning davlatlararo munosabatlardagi o'rni va ustuvorligi. Xalqaro huquq institutlari va sohalari. Halqaro huquqning asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati konsepsiyasi. Xalqaro huquq va davlatlar ichki huquq tizimining uyg'unlashuvi.

30-Mavzu. Xalqaro huquqni ta'minlash mexanizmlari

Xalqaro huquq normalarining O'zbekiston ichki huquq tizimiga ta'siri. Xalqaro huquq normalarini qo'llashning O'zbekiston amaliyotida o'ziga hosligi. Adliya organlari va muassasalari

xodimlari hamda patent vakillarining kasbiy faoliyatida xalqaro huquq normalaridan foydalanish masalalari.

IV. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Shaxsning huquqiy maqomi, uning elementlari va prinsiplari.
2. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi.
3. Konstitusiyaviy huquq va burchlar tizimi.
4. Ma`muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishning tartibi va muddatlari
5. Davlat boshqaruvida kontrol va uning turlari.
6. Davlat boshqaruvida nazorat.
7. Murojaat, uning turlari va ko‘rib chiqish tartibi hamda muddatlari.
8. «Majburiyat huquqi» tushunchasi, tizimi va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati.
9. Majburiyatlarning vujudga kelishi, bajarilishi va bekor bo‘lishi asoslari.
10. «Majburiyatlarni bekor qilish va o‘zgartirish» tushunchasi va turlari.
11. Qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari va turlari.
12. Jinoyatda ishtirokchilik va uning belgilari.
13. Jinoyat protsessining ishtirokchilari va ularning tasnifi.
14. Jinoyat ishini yuritishga mas`ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar.
15. Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari.
16. Jinoyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar.
17. Himoyachi va vakillar.
18. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.
19. Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar.
20. Surishtiruvning boshlanishi va muddatlari.
21. Tergovchining surishtiruv organlari bilan hamkorligi.
22. Moliyaviy munosabatlar va moliya huquqi predmeti.
23. Moliya huquqi manbalari.
24. Moliya huquqiy munosabatlarining xususiyatlari.
25. Moliyaviy nazorat tushunchasi va vazifalari.
26. Banklarning asosiy vazifalari va tizimi.
27. Tadbirkorlik huquqi predmeti.
28. Tadbirkorlik huquqining asosiy tushunchalari.
29. Tadbirkorlik huquqi sub`yektlari va turlari.
30. Tadbirkor faoliyati sub`yektlari turlari.
31. Mehnat huquqiga oid munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
32. Mehnatdan tashqari mehnat munosabatlari turlari va mohiyati.
33. Mehnat huquqi manbalari.
34. Mehnat huquqi kafolatlari.
35. Mehnat shartnomalarining fuqarolik shartnomalaridan farqi.
36. Ish vaqti tushunchasi.
37. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari.
38. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar.

39. Mehnat kodeksining amal qilish doirasi.
40. Mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishi.
41. Majburiy mehnatning taqiqlanishi.
42. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish.
43. Inson xuquqlari, asosiy xuquq va erkinliklar.
44. Inson xuquqlarining mohiyati va prinsiplari.
45. Inson xuquqlarining avlodlari.

V. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar "Ishni sudga qadar yuritish" mavzusi bo'yicha tashkil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida tinglovchilar ma'muriy-protsessual, fuqarolik-protsessual va jinoyat-protsessual huquqlariga oid tegishli harakatlarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim va ular bo'yicha fikr yuritish maqsadida amaliy topshiriqlarni (tegishli protsessual hujjatlar tuzish, muammoli masalalarni yechish va h.k.) bajaradilar. Amaliy topshiriqlarini bajarishda tinglovchilar tegishli amaldagi qonun normalariga, amaliy tajribasi va o'quv kursi davomida olgan bilimlarga tayanib, ularni asoslab bajarishlari kerak.

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

VI. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Huquq" tushunchasi, manbalari va tizimi. Huquqiy munosabatlar.
2. Qonuniylik, huquqiy tartibot va intizom. Huquqiy xatti-harakat, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy tuzumi va uning asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati organlarining tizimi.
4. Shaxsning konstitusiyaviy-huquqiy maqomi. Fuqarolik. Insonning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi.
5. Davlat boshqaruvining shakl va usullari. Ma'muriy majburlash.
6. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jazo berish vakolati bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish.
7. Ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etishning tartibi va muddatlari.
8. Ma'muriy javobgarlik va ma'muriy jazo choralari. Ayrim turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.
9. "Fuqarolik huquqi" tushunchasi. Ishonchnoma. Da'vo muddati.
10. Mulk huquqi va uni himoya qilish. Fuqarolik-huquqiy bitimlar va shartnomalar.
11. Fuqarolik-huquqiy majburiyatlar hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik.
12. "Jinoyat" tushunchasi va belgilari. Jinoyat uchun javobgarlikning asoslari. "Jinoyat tarkibi" tushunchasi.
13. Tamom bo'lmagan jinoyat va jinoyatda ishtirokchilik.
14. Bir qancha jinoyat sodir etish. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar.
15. Jazo va uni tayinlash. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. Sudlanganlik. Alohida turdagi jinoyatlarning xususiyatlari.

17. Jinoyat protsessining ishtirokchilari.
18. Dalillar va isbotlash jarayoni.
19. Protsessual majburlov.
20. Ishni sudga qadar yuritish .
21. Sud tergov.
22. Moliya huquqi tizimi va asoslari.
23. Byudjet huquqi.
24. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi.
25. Tadbirkorlik shartnomalari.
26. Mehnat huquqi tushunchasi va predmeti.
27. Intizomiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish.
28. Mehnatga oid qonun hujjatlarining vazifalari.
29. Mehnatga oid munosabatlarning sub`yektlari.
30. Inson huquqlari: tushunchasi, turlari va prinsiplari.
31. Inson huquqlarini ta`minlashda individual huquqlarning o`rni.
32. Xalqaro huquq tizimi.
33. Xalqaro huquqni ta`minlash mexanizmlari.

VII. O`QUV VA ISHLAB CHIQUV AMALIYOTLARI

(O`quv rejasida bu fan uchun ko`zda tutilmagan)

VIII. LABORATORIYA VA KURS ISHLARI

(O`quv rejasida bu fan uchun ko`zda tutilmagan)

IX. ASOSIY VA QO`SHIMCHA O`QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni kat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug`, hayoti yorug` va kelajagi farovon bo`ladi. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O`zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

Normativ-huquqiy xujjatlar:

O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O`zbekiston, 2021.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2019.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2019.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T., 2019.

O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. – T., 2019.

- O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi. – T., 2019.
 O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T., 2019.
 O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – T., 2018.
 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. – T., 2015.
 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – T., 2018.
 O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta`minlash to‘g‘risida”gi Qonuni.
 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1998, №5-6, 97-modda.

Maxsus adabiyotlar:

- Axmedshayeva M.A. Davlat mexanizmi va hokimiyatlar bo‘linishi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2005. – 70 b.
 Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshq.; X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – T., 2009. – 592 b.
 Davlat va huquq nazariyasi. Mas’ul muharrirlar: H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev. – T., 2005.
 Zokirov I.B. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Darslik. – T., 2009. – 608 b.
 Inoyatov A.A. O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. – T., 2002. – 383 b.
 Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T., 2007 – 916 b.
 Ikramov R.A. Fuqarolarning ekologik huquqlari va ularni ta`minlash. O‘quv qo‘llanma. – T., 2008. – 80 b.
 Li A.A. O‘zbekiston Respublikasining moliya huquqi. Darslik. – T., 2004. – 398 b.
 Otaxo‘jayev F.M., Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi. Darslik. – T., 2009, – 396 b.
 Rahmonqulov H., Ro‘zinazarov Sh. Tadbirkorlik huquqi. T.1. Darslik. – T., 2002. – 664 b.
 Rahmonqulov H., Ro‘zinazarov Sh. Tadbirkorlik huquqi. T.2. Darslik. – T., 2002. – 266 b.
 Rustamboyev. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish. – T., 2005. – 456 b.
 Rustamboyev M., Axmedov D., Xidirov S., Bekov I. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish (lotin yozuvida) – T., 2005.
 Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi (maxsus qism). Darslik. – T., 2007. – 655 b.
 Fuqarolik huquqi. Maxsus qism. Darslik. – T., 2007. – 926 b.
 Xojiyev E.T., Xojiyev T.T. Ma‘muriy huquq. Darslik. – T., 2008. – 608 b.
 Hakimov G‘., Samig‘janov F. Ma‘muriy huquq. O‘quv qo‘llanma. – T., 2009. – 284 b.
 Huquqshunoslik, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / O.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T., 2009. – 141 b.
 Usmanova M.A., Tursunov Y. Mehnat huquqi. – T., 2006. – 223 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. – T., 2004. – B.70.
 Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. – T., 2009. – B. 85.
 Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. Ikki palatali parlament. – T., 2005. – B.79.
 Odilqoriyev X. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T., 2008. – B.11.
 Tadjixanov B.U. Huquqiy siyosat va huquqiy tizimni modernizatsiyalash. – T., 2007. – B.4.
 Fayziyev M.M., Odilqoriyev X.T., Rahimov F. va b. O‘zbekiston milliy davlatchilik nazariyasining huquqiy asoslari. – T., 2006;
 Tadjixanov B.U. O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida demokratik islohotlar. – T., 2005. – B.54.
 Javlijev N.B. Hozirgi zamon huquqni tushunish muammolari. – T., 2008. – B.87-88.
 Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 1993. – B. 122.

Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. O'quv qo'llanma. – T. 2004. – 138 b.

Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari. – T. 2004. – 36 b.

Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriev, I.T.Tulteyev va boshq.; prof., – T., Odilqoriev tahriri ostida. – T., 2009. – 568 b.

Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik. Pod red. akad. Abduraxmanova K.X. – M., 2008. – 620 s.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga sharh /Mas'ul muharrir A.A.Azizxo'jayev. – T., 2008. – 495 b.

Inoyatov A.A. O'zbekiston Respublikasi mehnat huquqi. – T., 2002. – 188 b.

Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. – T., 2002. – 279 b.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. – T., 2008. – 985 b.

Internet saytlari

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali: www.gov.uz

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.mijust.uz

O'zbekiston Respublikasi DSQ sayti: www.soliq.uz

O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <http://lex.uz>

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sayti: www.supcourt.uz

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi sayti: www.mvd.uz

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi sayti: genprok.gov.uz

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti: www.nhrc.uz

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) sayti: www.ombudsman.uz

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti sayti: <http://www.tsul.uz>.